

## Dadahon Hasan

### "Xumor-xumor"

Visit "[Xumor-xumor](#)" on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com)

Xumor-xumor ko'zlaring,  
Xumor-xumor ko'zlaring  
Kuy bo'ldi, navo bo'ldi.  
Navolaringni tinglab  
Yuragim ado bo'ldi.

Shahlo ekan ko'zlaring,  
Zuhro ekan ko'zlaring,  
Men suzishni bilmadim,  
Daryo ekan ko'zlaring.

Meni yoqdi alamlar,  
Jabru jafo, sitamlar,  
Lutfu karamlar esa  
O'zgaga ravo bo'ldi.

Umrim bo'yi o'rtandim,  
Kuyib kulga aylandim,  
Holimni ko'rib, sendan  
Na sas, na sado bo'ldi.

Menga alam qilmasmu,  
Menga olam kirmasmu,  
Hajringda yona-yona  
Umrim ham ado bo'ldi.

Xumor-xumor ko'zlaring,  
Xumor-xumor ko'zlaring  
Kuy bo'ldi, navo bo'ldi.  
Navolaringni tinglab  
Yuragim ado bo'ldi.

Visit [Dadahon Hasan](#) page on [MotoLyrics.com](https://MotoLyrics.com), to get more lyrics and videos.